




MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
JIZZAX FILIALI



**"BIOTEXNOLOGIYANING  
RIVOJLANISH  
ISTIQBOLLARI VA  
MUAMMOLARI"**

**MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA  
MIQYOSIDAGI ILMIY-TEXNIK  
ANJUMAN TO'PLAMI**



**28-29-MART  
2025-YIL**



**Google  
Scholar**



**BIOTEXNOLOGIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI**  
**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA**  
**INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY**  
**UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**BIOTEXNOLOGIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VA**  
**MUAMMOLARI**

**RESPUBLIKA ILMIY ANJUMANINING TEZISLAR TO‘PLAMI**  
**28-29 mart 2025 y**

**\*\*\***

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И**  
**ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**ДЖИЗАКСКИЙ ФИЛИАЛ НАЦИОНАЛЬНОГО УНИВЕРСИТЕТА**  
**УЗБЕКИСТАНА ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА**

**СБОРНИК ТЕЗИСОВ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ НАУЧНОЙ**  
**КОНФЕРЕНЦИИ**

**«ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ**  
**БИОТЕХНОЛОГИЙ»**  
**28-29 марта 2025 г.**

**JIZZAX – 2025**

**BIOTEXNOLOGIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI**  
**PESHKO' TUMANI TUPROQLARIDAN SHO'RGACHIDAMLI**  
**BAKTERIYALARNI AJRATIB OLISH VA IDENTIFIKATSIYA QILISH**

**Roziqova N.R.**

**Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti**

**Annotatsiya:** Zamonaviy mikrobiologiyaning bugungi kunda tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan yo'nalishlaridan biri, tuproq bilan mikroorganizmlar orasidagi munosabatlarni o'rganishga qaratilgan izlanishlar hisoblanadi. Ayniqsa, sho'rlangan hududlardagi yerlarning, suvlarning ekologik xususiyatlaridagi o'zgarish sabablarini ilmiy asoslash va ularga yechim topish dolzarb muammolardan biridir.

**Kalit so'zlar:** tuproq, bakteriya, sho'rlanish, stress omillar.

Sho'rlanish, qishloq xo'jaligi amaliyotida organik dehqonchilik qilish, mo'l hosil yetishtirish, shuningdek, tuproqni ekologik sog'lom holatda saqlab qolish uchun jiddiy muammo hisoblanadi. Ayniqsa, Buxoro viloyatining Peshko' tumani qurg'oqchil va sho'rlanish darajasi yuqori bo'lgan hududlardan biri hisoblanadi. Tuproq mikrobiomi o'simliklar o'sishi va tuproq unumdorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi Peshko' tumani sho'r tuproqlaridan sho'rlanishga chidamli xususiyatga ega bo'lgan bakteriyalarni toza holda ajratib olish va ularni o'simliklar o'sishiga ta'sirini aniqlash. Peshko' tumani sho'r tuproqlaridan tuproq namunalari olib kelindi. Tuproq tarkibidagi bakteriyalarni o'stirish va ajratib olish uchun, ular suyuq NB (Nutrient Broth) ozuqa muhitining 3% NaCl li ozuqasiga inkubatsiya qilinib, 30°C da 130 aylanishli tebratgichda o'stirildi, natijada 12 ta bakteriya izolyatlari o'sib chiqdi. Suyultirib ekish natijasida ulardan 5 ta toza bakteriyalar izolyatlari agarli NA (Nutrient Agar) ozuqa muhitining 3% li NaCl li ozuqasida inkubatsiya qilib ajratib olindi. Toza holda ajratib olingan bakteriya izolyatlari MALDI-TOF mass-spektrometriya usulida tahlil qilinganda *Pseudochrobactrum asaccharolyticum*, *Brevundimonas diminuta* sho'rlanishga chidamli bakteriyalar turlari aniqlandi. Sho'rlanishga chidamli mikroorganizmlar o'simliklar o'sishida va ozuqlanishida muhim rol o'ynaydi.